Registered in Germany Europa Revue Journal
ISSN: 1862-6564 Vol. 6 No. 11 (2026) Published November 22, 2026

THE JUDGE'S AUTHORITY TO FACILITATE RECONCILIATION: ITS CONCEPT, LIMITS, AND RELATIONSHIP WITH THE PRINCIPLE OF DISPOSITIVENESS

Malikov Sharifjon O'ktam o'g'li

Abstract

This article examines the powers of a judge to assist the parties in reaching reconciliation in the economic court proceedings of Uzbekistan, their limits and their relationship with the dispositive principle (party autonomy). Article 130 of the Economic Procedure Code obliges the court to take measures to reconcile the parties but does not define their content or limits; this gap is the scientific problem of the article. Comparing the approaches found in Uzbek legal scholarship and drawing on the experience of France and Germany, the article interprets judicial assistance as a guarantee of the parties' "informed disposition". Proposals are made to define judicial powers by law, to pilot a non-deciding conciliation judge and to protect the confidentiality of settlement talks.

Keywords

judicial assistance in reconciliation, dispositive principle "party autonomy", economic court, settlement agreement, mediation agreement, "informed disposition", impartiality, Güterichter "conciliation judge".

SUDYANING YARASHUVGA KO'MAKLASHISH VAKOLATLARI: TUSHUNCHASI, CHEGARALARI VA DISPOZITIVLIK TAMOYILI BILAN NISBATI

Malikov Sharifjon O'ktam o'g'li

Annotatsiya

Ushbu maqolada sudyaning yarashuvga ko'maklashish vakolatlari tushunchasi, huquqiy tabiati va chegaralari dispozitivlik tamoyili bilan nisbatda tahlil qilinadi. Maqolada dispozitivlik tamoyilining moddiy va protsessual huquqdagi namoyon bo'lishi, kelishuv bitimi bilan mediativ kelishuvning farqlari, sud ko'magini cheklovchi ixtiyoriylik, betaraflik, qonuniylik va protsessual shakl mezonlari yoritiladi. Iqtisodiy protsessual kodeksning 130-moddasi sudga taraflarni yarashtirish choralarini ko'rish

majburiyatini yuklaydi, ammo bu choralarning mazmuni va chegarasini belgilamaydi; shu bo'shliq maqolaning ilmiy muammosini tashkil etadi.

Kalit so'zlar: *yarashuvga ko'maklashish, dispozitivlik tamoyili, iqtisodiy sud, kelishuv bitimi, mediativ kelishuv, "ma'lumotli tasarruf", betaraflik, Güterichter "yarashtiruvchi sudya".*

Kirish

Tadbirkorlik nizolari odatda uzoq muddatli shartnoma munosabatlaridan kelib chiqadi: yetkazib beruvchi va xaridor, pudratchi va buyurtmachi, bank va qarz oluvchi sud qarori chiqqanidan keyin ham bozorda hamkorlik qilishda davom etadi. Shu sababli sud qarori nizoni hal qilsa-da, taraflar o'rtasidagi ishonchni tiklay olmaydi, o'zaro kelishuv esa ham nizoni, ham hamkorlikni saqlab qolishi mumkin. Mamlakatimizda iqtisodiy nizolarni kelishuv yo'li bilan hal etish institutlari izchil kengaymoqda: 2018-yilda "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi, Iqtisodiy protsessual kodeksga yarashuv tartib-taomillariga oid alohida bob kiritildi, 2025-yil 20-oktabrdagi O'RQ-1089-son Qonun bilan esa mediativ kelishuvlarni majburiy ijro etish tartibi mustahkamlandi. IPKning 130-moddasiga ko'ra sud iqtisodiy ish yuritishning barcha bosqichlarida taraflarni yarashtirish choralarini ko'radi va ularga nizoni hal etishda ko'maklashadi. Oliy sud Plenumi esa sudyalarga ishni "kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv tuzish yo'li bilan tamomlashga ko'maklashishlari lozim", deb yo'l-yo'riq beradi.[1] Biroq qonun ham, Plenum ham "chora ko'rish" va "ko'maklashish"ning mazmunini ochib bermaydi: sudya taraflarga nimani tushuntirishi, qanday tashkiliy sharoit yaratishi va qayerda to'xtashi kerakligi aniq emas.

Bu bo'shliq ilmiy muammoga aylanadi. Dispozitivlik tamoyiliga ko'ra nizoning taqdirini taraflarning o'zlari hal qiladi, sudya esa shu bilan birga nizoni hal qiluvchi va betaraf shaxs bo'lib qoladi. Agar u yarashuvga haddan tashqari faol aralashsa, taraflar irodasining erkinligiga va sudning xolisligiga shubha tug'iladi; agar passiv qolsa, qonun yuklagan majburiyat bajarilmaydi. Shu bois tadqiqot savoli quyidagicha: sudyaning ko'maklashuvi dispozitivlikni cheklaydimi yoki uni amalga oshirishning shartimi va uning chegarasi qayerdan o'tadi? Ko'maklashuv taraflarning ma'lumotli tasarrufini

[1] O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2019-yil 24-maydagi 13-son qarori, 32-band.

ta’minlaydigan vosita bo’lib, uning chegarasi sudya kelishuvning mazmuniga yoki uni tuzish-tuzmaslik qaroriga ta’sir qila boshlagan nuqtadan o’tadi. Ushbu maqolada formal-yuridik va qiyosiy-huquqiy usullardan foydalanildi: o’zbek huquqshunoslarining ikki yondashuvi taqqoslandi, xorijiy tajribadan esa Fransiya va Germaniya tanlandi, chunki ularda sudyaning yarashtirishdagi o’rni qonunda alohida belgilangan va betaraflik muammosi turli yo’llar bilan hal etilgan.

Asosiy qism

1. Nazariy asoslar: dispozitivlik tamoyili va ko’maklashuv tushunchasi

Dispozitivlik (lot. dispositivus - ixtiyoriy, farmoyish beruvchi) tamoyili huquq subyektlariga o’z moddiy va protsessual huquqlarini o’z xohish-irodasiga ko’ra mustaqil tasarruf etish - amalga oshirish, o’zgartirish yoki undan voz kechish - imkonini beradi. U dispozitiv normalar bilan chambarchas bog’liq: dispozitiv norma taraflar kelishuvi bilan boshqacha tartibga solinishi mumkin bo’lgan qoidani, imperativ norma esa taraflar irodasidan qat’i nazar majburiy qoidani bildiradi.

Moddiy huquqda dispozitivlik uch ko’rinishda namoyon bo’ladi: shartnoma erkinligi (kim bilan va qanday shartlarda shartnoma tuzishni taraflarning o’zi hal qiladi), mulkni tasarruf etish (sotish, hadya qilish, garovga qo’yish) va huquqdan voz kechish (masalan, qarzni talab qilmaslik). Tadbirkorlik munosabatlarida bu erkinlik ayniqsa keng, chunki xo’jalik yurituvchi subyektlar o’z manfaatlarini yaxshi biladi va shartnoma shartlarini o’zlari belgilaydi. Protsessual huquqda dispozitivlik sud jarayonining taqdirini taraflar o’zlari boshqarishida ko’rinadi: sudga murojaat qilish yoki qilmaslik, da’vo talablarini o’zgartirish yoki ulardan voz kechish, kelishuv bitimi tuzish va sud hujjatini shikoyat qilish ularning xohishiga bog’liq. Iqtisodiy sudda bu tamoyilning markaziy ifodasi - taraflarning nizoni kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv orqali hal etish huquqidir. Kelishuv bitimi ish yuritishning istalgan bosqichida, hatto sud hujjatini ijro etish jarayonida ham tuzilishi mumkin; mediativ kelishuv esa birinchi instansiya sudida sud qaror qabul qilish uchun maslahat xonasiga chiqqunga qadar tuziladi.

Dispozitivlik cheksiz emas: taraf faqat o’z huquqini tasarruf etadi, qonunga zid harakat qila olmaydi va boshqa shaxslarning huquqlariga daxl qila olmaydi. Masalan, sudga murojaat qilish huquqidan voz kechish haqiqiy hisoblanmaydi. Shu asosda

sudyaning yarashuvga ko'maklashish vakolatlarini quyidagicha ta'riflaymiz: bu sudya tomonidan qonun doirasida amalga oshiriladigan, taraflarga kelishuv imkoniyatini tushuntirish, buning uchun tashkiliy sharoit yaratish va erkin ifodalangan kelishuvni qonuniylik nuqtai nazaridan tasdiqlashdan iborat faoliyatdir. Uning muhim belgisi - sudya kelishuvning mazmunini belgilamaydi. Shu jihatdan u mediator faoliyatidan farqlanadi: mediator betaraf vositachi bo'lib, nizoni hal qilish vakolatiga ega emas, sudya esa hal qiluvchi vakolatga ega. Aynan shu farq ko'maklashuv chegarasini aniq belgilash zaruratini keltirib chiqaradi.

O'zbek huquqshunosligida sudyaning yarashtirishdagi o'rniga oid ikki yondashuvni ajratish mumkin: birinchisi sudyaning majburiyati va rollarni ajratishga, ikkinchisi sudyaga yarashtirish uchun protsessual vositalar berishga urg'u beradi. Ularning tadqiqotlari umumiy yarashuv tartib-taomillariga bag'ishlangan bo'lib, IPKda ham shunday bob mavjudligi sababli xulosalari iqtisodiy sudlar uchun ham dolzarb.

Birinchi yondashuv - majburiyat va rollarni ajratish "P. Yessenbekova". Olim yarashuv tartib-taomillarini sud va suddan tashqari tartibda amalga oshiriladigan ixtiyoriy faoliyat deb talqin qiladi. Uning fikricha, dispozitivlik tamoyili barcha instansiyalarda amal qilgani uchun taraflar kelishuvga ish yuritishning istalgan bosqichida erisha olishi kerak, sudning taraflarni yarashtirish choralarini ko'rish majburiyati esa qonunda mustahkamlanishi lozim.[2] Uning muhim hissasi - betaraflik muammosini tuzilmaviy hal etishi: birinchi instansiya sudida mediatsiya o'tkazish uchun "ish boshqa sudyaga o'tkaziladi", mediatsiya chog'ida olingan dalillar esa ishni hal qiluvchi sudyaga taqdim etilmaydi; faqat taraflar iltimosi bilan ishni ko'rayotgan sudyaning o'zi ham mediatsiya o'tkazishi mumkin.[3] 2025-yilda e'lon qilingan keyingi maqolasida u sudyalar taraflarga kelishuvni taklif qilishini, asosiy to'siqlar esa aholi xabardorligining pastligi, mediatorlar yetishmasligi va mediativ kelishuvlarning majburiy kuchi zaifligi ekanini ko'rsatadi hamda dastlabki mediatsiya sessiyalarini Germaniya va Singapur amaliyotiga tayanib joriy etishni tavsiya qiladi.[4]

[2] Yessenbekova P. T. O'zbekiston va Qozog'iston fuqarolik sudlovida yarashuv tartib-taomillari: PhD dissertatsiyasi avtoreferati. — Toshkent: TDYuU, 2020. — 26, 31, 34-betlar (elektron nusxa).
[3] Yessenbekova P. T. Ko'rsatilgan avtoreferat. — 35–36-betlar.
[4] Yessenbekova P. Civil proceedings conciliations in Uzbekistan and Kazakhstan // Journal of Actual Problems of Jurisprudence. — 2025. — Vol. 116, No. 4. — P. 67–76.

Ikkinchi yondashuv - vositalarni qonunlashtirish "A. Hayrulina". Olima muammoni sudyaga berilgan vositalar yetishmasligida ko'radi: ikkala protsessual kodeksga ham yarashtirish boblari kiritilgan bo'lsa-da, yarashtirishning o'zi aniqlanmagan va qonun sudyaga sud yarashtiruvini o'tkazish yoki mediatorni jalb etish huquqini bermagan. U taraflar iltimosi bilan sudya ishtirokidagi yarashuv tartibini taklif qiladi: sudya vaqt va joyni belgilaydi, ishni 1 kundan 60 kungacha kechiktirishi va zarur bo'lsa professional mediatorni taklif qilishi mumkin. Sudyalarni u mediatsiyaning "keys to mediation" "kalitlari" deb ataydi; amalda esa 2020–2021-yillarda mediativ kelishuvlar tugatilgan ishlarning 1,1 foizidan kamini tashkil etgan, sudyalar kelishuv bitimi bilan mediativ kelishuvni ba'zan adashtirgan.[5]

Ikki yondashuvni taqqoslaymiz. Umumiy jihat shuki, ikkala olim ham yarashtirishni ixtiyoriy deb biladi, sudyaning kelishuv mazmunini belgilashini nazarda tutmaydi va sud faolligini oshirish zarurligini tan oladi. Farqlar esa uchta. Birinchisi - muammoning tashxisi: Yessenbekovada u betaraflikni ta'minlovchi tuzilmaning yo'qligi rollar ajratilmagan, konfidensiallik kafolatlanmagan, Hayrulinada esa sudyada yarashtiruv vositalarining yo'qligi. Ikkinchisi - yarashtiruvchi va hal qiluvchi sudyaning o'zaro munosabati: Yessenbekova ularni qoida tariqasida ajratadi, Hayrulina taklifida esa ustuvor o'rin sudyaning tashkiliy vakolatlariga beriladi. Uchinchisi - taraflar roziligining vazifasi: birinchi yondashuvda u ajratish qoidasidan chekinish imkonini beradi, ikkinchisida esa yarashuv tartibining o'zini ishga tushiradi. Fikrimizcha, birinchi yondashuv betaraflikni himoya qilishda kuchli, ammo kichik sudlarda boshqa sudyani ajratish amaliy qiyinchilik tug'dirishi mumkin; ikkinchisi qonundagi bo'shliqni to'g'ri ko'rsatadi, biroq sudya muzokaralarni o'zi yuritganda betaraflik xavfini ochiq qoldiradi.

Fikrimizcha,. Dispozitivlik faqat aralashuvdan xoli bo'lish emas, balki tasarrufni ongli amalga oshirish imkoniyatidir: taraf kelishuvning muqobil yo'llari, oqibatlari va muddatlarini bilmasa, tanlov erkinligi rasmiy bo'lib qoladi. Shu ma'noda sudyaning axborot berishi, o'ylab ko'rish uchun vaqt ajratishi va qonuniylikni tekshirishi dispozitivlikni cheklamaydi, aksincha, uni to'ldiradi. Cheklov esa ko'maklashuv

[5] Hayrulina A. Comparative Analysis of Mediation in Some Foreign Countries and Uzbekistan: Potential Questions and Proposals // Janus.net, e-journal of international relations. — 2024. — Vol. 15, No. 1. — P. 41–56.

tasarruf obyektiga - kelishuv mazmuniga yoki uni tuzish-tuzmaslik qaroriga - ta'sir qila boshlagan joydan boshlanadi. Shu mezonga ko'ra vakolatlar ikki guruhga bo'linadi: hal qiluvchi sudyada qoladigan axborot berish, kechiktirish, tasdiqlash va undan ajratilishi lozim bo'lgan taraflar bilan yarashuv muzokaralarini yuritish, ularning manfaatlarini alohida aniqlash vakolatlar.

3. Tamoyillar va vakolat chegaralari

Ko'maklashuvning chegarasi IPK normalari va sud amaliyotidan to'rt mezon sifatida chiqadi. **Birinchisi - ixtiyoriylik.** Kelishuv taraflarning erkin irodasiga tayanadi: IPKda sudga yarashtirish choralarini ko'rish vazifasi yuklangan, kelishuvga majburlash huquqi esa berilmagan. Majlisni kechiktirish ham faqat taraf yarashish uchun sud ko'magini so'raganda mumkin, ya'ni har safar o'n kundan oshmagan muddatga va ko'pi bilan uch marta Plenum tushuntirishiga ko'ra, sud majlisda taraflarga kelishuv bitimi tuzishni taklif etishi yoki ishni ko'rishni boshqa muddatga qoldirishi mumkin.[6]

Ikkinchisi - betaraflik va tortishuv. IPK sudyalarning mustaqilligini hamda taraflarning tortishuvi va tengligini tamoyil sifatida mustahkamlaydi. Sudya yarashtirish chog'ida ish mazmuni bo'yicha dastlabki bahosini bildirsa, keyinchalik uni xolis hal qiluvchi sifatida qabul qilish qiyinlashadi. Shu sababli sudya taklifi nizoning mohiyati bo'yicha baho emas, balki yarashuv imkoniyati va uning oqibatlari haqidagi betaraf axborot ko'rinishida bo'lishi kerak.

Uchinchisi - qonuniylik va uchinchi shaxslar manfaatlari. Sud kelishuv bitimi qonunga zid bo'lsa, boshqa shaxslarning huquqlariga daxl qilsa yoki shartli tuzilgan bo'lsa, uni tasdiqlamaydi. Sud amaliyotida bu talab aniq shakllarga ega: Plenum sudning kelishuvni tuzish tartibini ham tekshirishini, aksiyadorlik jamiyati yoki mas'uliyati cheklangan jamiyat ishtirokida kelishuv yirik bitim belgilariga javob berishini aniqlashini, davlat mulki bo'lsa, vakolatli organning roziligi va obyekt baholanganligiga e'tibor qaratishini belgilaydi.[7] Mediatsiya to'g'risidagi qonun ham uchinchi shaxslarning huquqlari yoki jamoat manfaatlariga daxldor nizolarga tatbiq etilmaydi (Oliy sud Plenumining 13-son qarori, 32²-band).

---

[6] O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2009-yil 18-dekabrdagi 204-son qarori (2025-yil 29-apreldagi o'zgartirishlar bilan), 5-band.

[7] Plenumning 204-son qarori, 13, 14 va 14.1-bandlar.

To’rtinchisi - shakl va muddat. Kelishuv bitimi yozma shaklda, bajarish shartlari va muddatlari ko’rsatilgan holda tuziladi, sud majlisida ko’rilib, ajrim bilan tasdiqlanadi. Plenum tasdiqlash “sudning huquqi emas, balki majburiyati” ekanini alohida ta’kidlaydi va tasdiqlangan kelishuvni keyinchalik qayta ko’rish yoki ijro etishdan bosh tortish mumkin emasligini ko’rsatadi.[8] Bu talablar yarashuv erkinligi bilan qarorning yakuniyligi va qarshi taraf huquqlari o’rtasidagi muvozanatni saqlaydi, ko’maklashuv esa ish yuritishni cho’zish vositasiga aylanmasligini kafolatlaydi. Demak, sudya axborot berishi, vaqt va sharoit yaratishi hamda qonuniylikni tekshirishi mumkin; kelishuv mazmunini belgilashi, yarashuvga majburlashi yoki yarashmagan tarafga nisbatan salbiy munosabat bildirishi mumkin emas.

4. Vositalar: iqtisodiy sud ish yuritishida ko’maklashuv mexanizmlari

IPK va Oliy sud Plenumi sudya vakolatlarini uch guruh vositalar orqali ro’yobga chiqaradi. Birinchisi - axborot vositasi. Ishni sudga tayyorlash bosqichida sudya taraflarni yarashtirish choralarini ko’radi, sudgacha majlisda esa taraflardan kelishuv bitimi yoki nizoni muqobil hal etish usullaridan foydalana olishlarini so’raydi va ularning huquqiy oqibatlarini tushuntiradi. Plenum sudgacha majlis o’tkaziladigan ishlarni sudyaning o’zi belgilashini va uni videokonferensiya orqali ham o’tkazish mumkinligini ko’rsatadi.[9] Ikkinchisi - tashkiliy vosita: taraf yarashish uchun sud ko’magini so’ragan taqdirda sud muhokamani kechiktiradi, bu esa taraflarga muzokara uchun real vaqt beradi. Uchinchisi - tasdiqlash vositasi: sud kelishuv bitimini majlisda ko’rib chiqadi va ish yuritishni tugatuvchi ajrim chiqaradi. Mediativ kelishuv sud tomonidan tasdiqlanmaydi: uning ijrosi 2025-yilgi Qonun bilan kiritilgan tartibda, ijro varaqasi berish orqali ta’minlanadi, mediativ kelishuvni majburiy ijro etish haqida ajrim chiqarilgan bo’lsa, xuddi shu taraflar o’rtasidagi xuddi shu nizo bo’yicha da’vo arizasini qabul qilish rad etiladi.

5. Fransiya va Germaniya tajribasi. Qiyoslash uchun Fransiya va Germaniya tanlandi: ikkalasida ham yarashtirish sudyaga umumiy vazifa sifatida yuklangan, tadbirkorlik nizolariga ham fuqarolik protsessining umumiy qoidalari qo’llanadi, biroq

[8] Plenumning 204-son qarori, 7 va 19-bandlar.
[9] Oliy sud Plenumining 13-son qarori, 30 va 33.2-bandlar.

betaraflik muammosi turlicha hal etilgan. Fransiyada sudyaning yarashtirish vazifasi protsessual kodeksning umumiy tamoyillari qatorida 1975-yildan buyon turadi. Professor B. Bernabéning baholashicha, yarashtirish “au cœur de l’office du juge”, ya’ni sudya faoliyatining markazida bo’lishi lozim; shu bilan birga yarashtiruvchi uchinchi shaxs, hatto u sudya bo’lsa ham, betaraf bo’lishi tamoyil sifatida ta’kidlanadi.[10] 2025-yil 18-iyuldagi 2025-660-son dekret bilan 21-modda yangi tahrirda berildi: sudya taraflarni yarashtirish bilan birga ular bilan nizoni hal etishning eng mos usulini ham belgilaydi. Betaraflik muammosi 2023-yilda joriy etilgan “yarashuv majlisi” (*audience de règlement amiable*) orqali hal etilgan: uni ishni hal qiluvchi hay’atga kirmaydigan sudya o’tkazadi, majlisni o’tkazish haqidagi qaror ishni sudyadan olib qo’ymaydi, majlisda aytilganlar esa taraflar boshqacha kelishmagan bo’lsa konfidensial hisoblanadi (hozir CPCning 1532- va 1528-3-moddalari). Sudya taraflarga mediator bilan axborot uchrashuviga borishni ham buyurishi mumkin (1533-modda): 2025-yil 1-sentabrdan asosli sababsiz bo’ysunmaslik 10 000 evrogacha fuqarolik jarimasiga olib keladi, mediatsiyaning o’zi esa faqat taraflar roziligi bilan tayinlanadi.[11]

Germaniyada ZPOning 278-§ 1-qismi sudning ishning har qanday bosqichida nizoni yarashtirib hal etishga e’tibor qaratishini talab qiladi; og’zaki muhokamadan oldin, sudgacha yarashuv urinishi bo’lgan yoki yarashuv ravshan istiqbolsiz bo’lgan hollardan tashqari, yarashtirish majlisi (*Güteverhandlung*) o’tkaziladi. Betaraflik muammosi 5-qismda tuzilmaviy yechilgan: sud taraflarni maxsus tayinlangan, nizoni hal qilishga vakolatsiz sudya - *Güterichter*ga yo’naltirishi mumkin, u esa mediatsiyani ham qo’shgan holda nizoni hal etishning barcha usullaridan foydalana oladi. Amaliyotda majlis ochiq emas, taraflar konfidensiallik haqida o’zaro kelishishi mumkin, oraliq natijalar esa ish materiallariga faqat taraflar roziligi bilan qo’shiladi.[12] F. Schreiber bu modelni mediator va sudya o’rtasidagi “gibrid” deb baholaydi.[13]

---

[10] Bernabé B. qarashi quyidagi tahlilda keltirilgan: L’audience de règlement amiable : quelles avancées pour l’office conciliatoire du juge ? // Actu-Juridique, 06.04.2023, AJU360919.

[11] Code de procédure civile (Fransiya), 21-, 1528-3-, 1532- va 1533-moddalar (2025-660-son dekret tahririda, 2025-yil 1-sentabrdan); yarashuv majlisi 2023-686-son dekret bilan joriy etilgan. Qarang: Décret du 18 juillet 2025 : une étape importante dans la politique nationale de l’amiable // Actu-Juridique, 21.07.2025; Première amende civile pour refus de déférer à une injonction de rencontrer un médiateur // Actu-Juridique, 24.03.2026.

[12] Zivilprozessordnung (Germaniya), § 278 Abs. 1, 2, 5: gesetze-im-internet.de/zpo/__278.html; Bayern adliya organlari. Handreichung Güterichter.

[13] Schreiber F. Mediationsgesetzgebung als Justizreform // KritV. — 2013. — Jg. 96, H. 2. — S. 102–114.

Ikki tajribadan uchta xulosa chiqadi. Birinchidan, sudyaga yarashtirish umumiy vazifa sifatida yuklanadi - xuddi IPKning 130-moddasidagidek. Ikkinchidan, betaraflik muammosi tuzilmaviy usul bilan yechiladi: yarashtiruvchi sudya hal qiluvchidan ajratiladi, muzokaralar konfidensial bo'ladi. Uchinchidan, bosim darajasi turlicha: Fransiya mediator bilan axborot uchrashuviga jarima orqali majburlaydi, Germaniyada esa Güterichterga yo'naltirish jarima bilan ta'minlanmagan. IPKda faqat birinchi element mavjud. Yessenbekovaning "boshqa sudya" g'oyasi nemis modeliga yaqin, uning 2025-yilgi tavsiyasi ham Germaniya va Singapur amaliyotiga tayanadi; fikrimizcha, dispozitivlikka nemis yo'li yaqinroq, chunki u betaraflikni majburlov bilan emas, hal qilish vakolati yo'q sudyani ajratish orqali ta'minlaydi.

Xulosa va tavsiyalar. Tadqiqot ko'rsatdiki, IPKning 130-moddasi sudyaga yarashtirish majburiyatini yuklaydi, ammo vakolatlarning mazmuni va chegarasini belgilamaydi; ilmiy muammo shu bo'shliqdan kelib chiqadi. Sudyaning yarashuvga ko'maklashish vakolatlari nizoni hal qilish emas, balki taraflarning nizoni kelishuv orqali hal etishi uchun axborot, tashkiliy va nazorat shartlarini yaratishdan iborat.

Dispozitivlik tamoyili bilan nisbat ziddiyatli emas, to'ldiruvchi xarakterga ega: tamoyil taraflarga nizo taqdirini hal etish erkinligini beradi, ko'maklashuv esa bu erkinlikning ma'lumotli, ya'ni ongli amalga oshirilishini ta'minlaydi. Vakolatning chegarasi to'rt mezonga tayanadi: ixtiyoriylik, betaraflik, qonuniylik va uchinchi shaxslar manfaatlari, shakl hamda muddat. Bu chegaradan chiqish - majburlash, ish mazmuni bo'yicha oldindan baho berish yoki qonunga zid kelishuvni tasdiqlash - ko'maklashuvni dispozitivlikka tahdidga aylantiradi. Olimlar qarashlarining taqqosi va Fransiya hamda Germaniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, sudyaga umumiy vazifa yuklashning o'zi yetarli emas: uni betaraflikni saqlovchi tuzilma - hal qiluvchi sudyadan ajratilgan yarashtiruvchi sudya, muzokaralar konfidensialligi va taraflar roziligi bilan to'ldirish zarur. Shu asosda quyidagi takliflar beriladi:

1. IPKning 130-moddasini to'ldirib, sudya harakatlarining ruxsat etilgan doirasini (axborot berish, o'ylab ko'rish uchun muddat berish, mediatorga yo'llash, kelishuvni tasdiqlash) va taqiqlangan harakatlarini (kelishuvga majburlash, ish mazmuni bo'yicha oldindan baho berish) belgilash, Plenum darajasida mavjud tushuntirishlarni

qonunga ko’chirish.

2. Yarashuv muzokaralarini hal qiluvchi sudyadan ajratish: Germaniyadagi *Güterichter* modeliga tayanib, taraflar roziligi bilan “yarashtiruvchi sudya” institutini iqtisodiy sudlarda sinov tariqasida joriy etish.

3. Muzokaralarda aytilgan takliflar va e’tiroflar konfidensialligini, ular hal qiluvchi sudyaga ma’lum qilinmasligini va dalil sifatida ishlatilmasligini qonunda mustahkamlash.

4. Kechiktirish (IPK, 171-modda) va mediatsiya uchun to’xtatish muddatlarini taraflar ixtiyoriga asoslangan yagona tartibga keltirish.

5. Sudyalarni kelishuv bitimi va mediativ kelishuv farqi hamda yarashtiruv ko’nikmalari bo’yicha o’qitish; sud statistikasida sudya tushuntirishi, taklifi va yarashuv natijalarini alohida hisobga olish.

Takliflar amalga oshirilsa, sudya ko’magi dispozitivlikka tahdid emas, balki uni ma’lumotli va amaliy ro’yobga chiqarish kafolatiga aylanadi. Keyingi tadqiqotlar uchun yarashuvlarning barqarorligi, ya’ni kelishuvlarning ixtiyoriy ijro etilish darajasi bo’yicha empirik ma’lumotlar muhim bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi, 2018-yil 24-yanvar (rus tilidagi matn). - https://lex.uz/docs/3523895

2. “Mediatsiya to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuni, 2018-yil 3-iyul, O’RQ-482-son. - https://lex.uz/docs/-3805227

3. Mediatsiya va nizolarni muqobil hal etish institutini takomillashtirishga qaratilgan o’zgartish va qo’shimchalar to’g’risidagi 2025-yil 20-oktabrdagi O’RQ-1089-son Qonun. - https://lex.uz/docs/7786846

4. O’zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2019-yil 24-maydagi 13-son qarori. - https://lex.uz/uz/acts/-4395285

5. O’zbekiston Respublikasi Oliy xo’jalik sudi Plenumining 2009-yil 18-dekabrdagi 204-son “Iqtisodiy sudlar tomonidan kelishuv bitimini tasdiqlashda protsessual qonun normalarining qo’llanilishiga oid ayrim masalalar to’g’risida”gi qarori. - https://lex.uz/uz/acts/-2026218

6. Yessenbekova P. T. O'zbekiston va Qozog'iston fuqarolik sudlovida yarashuv tartib-taomillari: PhD dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent: TDYuU, 2020. - https://api.ziyonet.uz/uploads/books/251467/5e6f6ae8665be.pdf

7. Yessenbekova P. Civil proceedings conciliations in Uzbekistan and Kazakhstan // Journal of Actual Problems of Jurisprudence. - 2025. - Vol. 116, No. 4. - P. 67–76. - https://doi.org/10.26577/JAPJ202511646

8. Hayrulina A. Comparative Analysis of Mediation in Some Foreign Countries and Uzbekistan: Potential Questions and Proposals // Janus.net, e-journal of international relations. - 2024. - Vol. 15, No. 1. - P. 41–56. - https://doi.org/10.26619/1647-7251.15.1.3

9. Code de procédure civile (Fransiya). Légifrance. - https://www.legifrance.gouv.fr/codes/texte_lc/LEGITEXT000006070716

10. Décret du 18 juillet 2025: une étape importante dans la politique nationale de l'amiable (2025-660-son dekret tahlili) // Actu-Juridique, 21.07.2025. - https://www.actu-juridique.fr/arbitrage-marl/decret-du-18-juillet-2025-une-etape-importante-dans-la-politique-nationale-de-lamiable/

11. L'audience de règlement amiable : quelles avancées pour l'office conciliatoire du juge ? // Actu-Juridique, 06.04.2023, AJU360919. - https://www.actu-juridique.fr/international/marl/laudience-de-reglement-amiable-quelles-avancees-pour-loffice-conciliatoire-du-juge/

12. Première amende civile pour refus de déférer à une injonction de rencontrer un médiateur // Actu-Juridique, 24.03.2026. - https://www.actu-juridique.fr/marl/premiere-amende-civile-pour-refus-de-deferer-a-une-injonction-de-rencontrer-un-mediateur/

13. Zivilprozessordnung (Germaniya), § 278. - https://www.gesetze-im-internet.de/zpo/__278.html

14. Handreichung Güterichter. Bayern adliya organlari. - https://www.justiz.bayern.de/media/images/behoerden-und-gerichte/handreichung_g_terichter.pdf

15. Schreiber F. Mediationsgesetzgebung als Justizreform // KritV. - 2013. - Jg. 96, H. 2. - S. 102–114. - https://doi.org/10.5771/2193-7869-2013-2-102